

Халқ депутатлари Қумқўрғон тумани Кенгашининг 6- чақириқ 38- сессияси

KUN TARTIBI

1. Qumqo'rg'on tumani hokimi Gapparov Raxmatulla Boboxonovichning Qumqo'rg'on tumanida 2021-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2022-yilga mo'ljallangan rejalar va tumanimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha "Xalqqa murojaati" to'g'risida
2. Boshqa masalalar

Xalq deputatlari tuman Kengashining

o'ttiz sakkizinchi sessiyasi

ISH REGLAMENTI

1. **Ma'ruzalar uchun - 15 daqiqagacha**
2. **So'zga chiquvchilar uchun - 3 daqiqagacha**
3. **Ma'lumotlar uchun - 3 daqiqagacha**

1-масала ЛОЙИХА

Ўзбекистон Республикаси

O'zbekiston Respublikasi

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилояти

Xalq deputatlari

Surxondaryo viloyati

Қумқўрғон тумани Кенгаши

Qumqo'rg'on tumani Ken

ҚАРОРИ

QARORI

20__ йил “__” _____ № _____

Қумқўрғон т.

**Қумқўрғон тумани ҳокими Гаппаров Рахматулла Бобохоновичнинг
Қумқўрғон туманида 2021 йилги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш
яқунлари ҳамда 2022 йилга мўлжалланган режалар ва туманимизнинг
ижтимоий-иқтисодий аҳволини яхшилаш бўйича “Халққа мурожаати”
тўғрисида**

Туманнинг ишлаб чиқариш ва меҳнат салоҳиятидан оқилона фойдаланиш,
саноат, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш соҳаларини ҳамда оилавий
тадбиркорликни ривожлантириш бўйича истиқболли лойиҳаларни амалга
ошириш орқали аҳолининг, хусусан хотин-қизлар, ёшлар ва кам таъминланган
фуқароларнинг бандлигини таъминлаш, даромадлари ва турмуш даражасини
изчил ошириш, туманнинг меъморий қиёфасини тубдан ўзгартириш,
муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани янада яхшилаш
мақсадида 2022 йил учун инфратузилма лойиҳаларининг ишлаб чиқилиши,
жойларда ишлаб чиқариш ҳажмини кенгайтириш ва бандликни таъминлаш
мақсадида халқ депутатлари Қумқўрғон тумани Кенгаши **қарор қилади:**

1. Қумқўрғон тумани ҳокими Р.Б.Гаппаровнинг **“Халққа мурожаати”**
маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.
2. Туман ҳокимининг биринчи ва тармоқлар бўйича ўринбосарлари
(М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Н.Алланазаров, Ч.Шоймуротов, Б.Джумаев,
Қ.Алматов), тумандаги барча корхона ва ташкилотлар раҳбарлари билан
биргаликда:

туманни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан янада ривожлантириш, аҳолининг,

хусусан хотин-қизлар, ёшлар ва кам таъминланган фуқароларнинг бандлигини таъминлаш орқали уларнинг даромадларини ва турмуш даражасини ошириш;

янги ишлаб чиқариш қувватларини яратиш, мавжуд ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилиш орқали саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш;

аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш;

муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш, шу жумладан, ички йўлларни ва ижтимоий соҳа объектларини реконструкция қилиш ва қайта таъмирлаш, аҳолининг тоза ичимлик суви, табиий газ, электр энергияси билан таъминланганлик даражасини ошириш;

суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришни кўпайтириш ва уларни қайта ишлаш даражасини ошириш ишларини жадал ривожлантириш;

туманда ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш юзасидан зарур чора-тадбирларни амалга ошириш чораларини кўрсин.

3. Туман ҳокимининг тармоқлар бўйича ўринбосарлари (М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Н.Алланазаров, Ч.Шоймуротов, Б.Джумаев, Қ.Алматов), тумандаги тижорат банклари билан биргаликда туманнинг ички имкониятидан келиб чиққан ҳолда:

саноатда чуқур қайта ишлашни таъминлаш мақсадида маҳаллий хом-ашё базасини, шу жумладан, қурилиш материаллари ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, хусусан, пахта, ипак, сут, гўшт, балиқ, мева-сабзавотлар, доривор ўсимликлар ва шу каби муҳим ишларни амалга ошириш орқали 2022 йилда ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмини, саноат маҳсулотлари ҳажмини, хизматлар ҳажмини ошириш чораларини кўриш;

тумандаги саноат корхоналари билан кооперацияга эга вертикал ва горизонтал интеграциялашган ишлаб чиқаришларни ташкил қилиш;

фойдаланилмаётган ишлаб чиқариш майдонлари ва қувватлари, шу жумладан, фаолияти тўхтаган ташкилотлар негизида мавжуд имкониятларни мақбуллаштириш ҳисобига ҳамда ишлаб чиқариш инфратузилмасига эга кичик саноат зоналари ҳудудида қўшилган қийматлар занжирини чуқурлаштиришга қаратилган янги лойиҳаларни амалга ошириш;

туман иқтисодиётининг битта ёки иккита тармоқ маҳсулоти нарх

конъюктурасига боғлиқлигини камайтиришга, ҳудуд саноати ва урбанизация жараёнининг мувозанатли ривожланишига қаратилган ишлаб чиқаришнинг тармоқ ва ҳудудий диверсификациясини таъминлаш;

туманнинг экспорт имкониятларини кенгайтириш ва импортга боғлиқлигини камайтиришга қаратилган кенг турдаги тайёр рақобатбардош машинасозлик, электротехника маҳсулотлари ва истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни устувор қўллаб-қувватлаш бўйича кечиктириб бўлмайдиган ишларни амалга ошириш;

тижорат банклари инвестиция лойиҳаларини амалга оширувчи ҳамда тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш истагини билдирган ташаббускорларга лойиҳаларини ўз вақтида молиялаштиришга, шу жумладан, хорижий инвестицияларни ва кредитларни жалб қилишга зарур амалий ёрдам кўрсатиш вазифалари юклансин.

4. Туман ҳокимининг тармоқлар бўйича ўринбосарлари (М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Н.Алланазаров, Ч.Шоймуротов, Б.Джумаев, Қ.Алматов), Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги Қумқўрғон тумани бўлими (Х.Юлдошев) билан биргаликда:

транспорт ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмаси мавжуд ёки ўтказиш осон бўлган фаолият юритмаётган корхоналар балансидаги бино иншоотлар ва қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган бўш ер майдонларини хатловдан ўтказган ҳолда аниқланган бўш бино ва иншоотлар ҳамда ер майдонларини электрон аукцион орқали тадбиркорлик субъектларига сотишни;

5. Туман ҳокимининг тармоқлар бўйича ўринбосарлари (М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Н.Алланазаров, Ч.Шоймуротов, Б.Джумаев, Қ.Алматов) туман Бандлик бўлими (У.Сафаров) билан биргаликда:

меҳнат бозоридаги ҳақиқий ҳолатни чуқур таҳлил қилиш асосида аҳоли бандлигини таъминлашга доир ҳудудий ва тармоқ дастурларни шакллантириш, уларнинг бажарилишини мувофиқлаштириш, янги иш ўринларини ташкил этиш бўйича давлат буюртмаларини ишлаб чиқиш ва аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд қатламлари учун иш жойлари захирасини (квота) белгилаш юзасидан аниқ мақсадга йўналтирилган комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш;

ишчилар малакасини мунтазам ошириб бориш;

ноқонуний меҳнат миграцияси ва норасмий бандлик ҳолатларини камайтириш;

ташкил этилган иш ўринларининг ҳисобини юритиш ва ҳаққонийлигини таъминлаш масалаларида маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳамда кенг жамоатчилик ўртасида ўзаро ҳамкорлик механизмлари бўйича зарур чораларни амалга ошириш чораларини кўрсин.

6. Сектор раҳбарлари (Р.Гаппаров, Ш.Акрамов, Н.Нарзуллаев, З.Турсунов), туман ҳокимининг тармоқлар бўйича ўринбосарлари (М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Н.Алланазаров, Ч.Шоймуротов, Б.Джумаев, Қ.Алматов) билан биргаликда:

биринчидан, уй-жой коммунал ва йўл хўжалиги, энергия, сув ва иссиқлик таъминоти, транспорт қатнови, архитектура, арзон уй-жойлар қуриш, ҳудудларни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш, намунавий маҳалла ва хусусий уй-жой мулкдорлари ширкатларини шакллантириш соҳасидаги муаммоларни аниқлаш ҳамда ҳал этиш бўйича аниқ мақсадга қаратилган тадбирларни;

иккинчидан, ижтимоий муҳофазанинг манзиллилиги, истеъмол бозорида нархларнинг барқарорлиги, ижтимоий соҳа объектлари, энг аввало, соғлиқни сақлаш, таълим ва бошқа муассасаларнинг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш бўйича таъсирчан механизмларни;

учинчидан, ҳудудларни жадал иқтисодий ривожлантириш, шу жумладан, уларнинг табиий, иқтисодий ва инсон салоҳиятидан самарали фойдаланиш, қурилиши тугалланмаган объектлардан, фойдаланилмаётган ишлаб чиқариш ва ер майдонларидан оқилона фойдаланиш, маҳаллий бюджетларнинг даромад қисми ва ҳудуднинг экспорт имкониятларини кенгайтириш, жойларда замонавий бозор инфратузилмасини ташкил этиш, хизмат кўрсатиш, туризм соҳаларини ривожлантириш, тадбиркорлик субъектларига амалий ёрдам кўрсатиш ҳамда янги иш ўринларини яратиш бўйича комплекс чора-тадбирларни;

тўртинчидан, деҳқон хўжаликлари, томорқа учун ажратилган ерлардан мақсадли фойдаланиш, мева-сабзавотчилик, чорвачилик, паррандачилик, балиқчилик, асаларичилик ва бошқа фаолият турларини ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ташкил этишда фермер хўжаликларига кўмаклашиш;

бешинчидан, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан ўзаро ҳамкорликда ҳуқуқбузарликларни, айниқса вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида

профилактика қилиш ҳамда уларни барвақт олдини олиш;

аҳолини иқтисодиётнинг турли соҳаларида бандлигини таъминлаш, айниқса ёшлар ва хотин-қизлар бандлигига алоҳида эътибор қаратиш, минтақада ишсизлик даражасини сезиларли даражада камайтириш бўйича таъсирчан чора-тадбирларни амалга оширсин.

7. Туман ҳокимининг тармоқлар бўйича ўринбосарлари (М.Қултаев, Ж.Шопўлатов, Қ.Алматов, Ч.Шоймуратов), биргаликда:

минтақавий иқтисодиётни барқарор юқори суръатларда ўстириш - мавжуд табиий ресурсларни комплекс ва самарали ўзлаштириш, иқтисодий салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш, шунингдек хорижий инвестициялар ҳажмларини кўпайтириш ҳисобига ялпи минтақавий маҳсулотнинг ҳажмини ошириш;

замонавий қайта ишловчи ишлаб чиқаришларни ташкил этиш, ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилиш ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлашни давом эттириш, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни, биринчи навбатда, ишчи кучи кўп бўлган ва саноат ривожланишида ўзлаштириш ҳисобига саноатнинг ялпи минтақавий маҳсулот таркибидаги улушини кўпайтириш;

кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни, айниқса қишлоқ жойларда жадал ривожлантиришни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, кичик бизнеснинг ялпи минтақавий маҳсулотдаги улушини кўпайтириш ва шу асосда аҳоли бандлиги муаммоларини ҳал этиш ҳамда аҳолининг реал даромадларини оширишни таъминлаш;

хизматлар кўрсатиш ва сервис соҳасида, айниқса қишлоқ жойларда, тадбиркорлик ташаббусларини янада кенгайтириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, унинг ялпи минтақавий маҳсулот таркибидаги улушини янада ўсишини таъминлаш юзасидан аниқ-ҳисоб китобларга асосланган чора-тадбирларни амалга оширсин.

8. Туман ҳокимининг ўринбосарлари, тегишли ташкилот раҳбарлари амалга оширилган ишлар юзасидан Халқ депутатлари Қумқўрғон туман Кенгашига ҳар чорак якуни билан ҳисобот бериб борсинлар.
9. Қумқўрғон тумани ҳокими Р.Б.Гаппаровнинг **“Халққа мурожаати”** оммавий ахборот воситаларида эълон қилинсин.
10. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш халқ депутатлари туман Кенгашининг доимий комиссиялари (С.Турақулов, М.Намозов, А.Самадов, Қ.Турсунова, А.Абдурахимов, Ш.Абдусаматов, Р.Менгзияева) зиммаларига

Сессия раиси

Ч.Култаев

**Qumqo'rg'on tumani hokimi Gapparov Raxmatulla Boboxonovichning
Qumqo'rg'on tumanida 2021-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari
hamda 2022-yilga mo'ljallangan rejalar va tumanimizning ijtimoiy-iqtisodiy
ahvolini yaxshilash bo'yicha "Xalqqa murojaati" to'g'risida**

Tumanning ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarini hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali aholining, xususan xotin-qizlar,

yoshlar va kam ta'minlangan fuqarolarning bandligini ta'minlash, daromadlari va turmush darajasini izchil oshirish, tumanning me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash maqsadida 2022-yil uchun infratuzilma loyihalarining ishlab chiqilishi, joylarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va bandlikni ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Qumqo'rg'on tumani Kengashi qaror qiladi:

1. Qumqo'rg'on tumani hokimi R.B.Gapparovning "Xalqqa murojaati" ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, N.Allanazarov, Ch.Shoymurotov, B.Djumaev, Q.Almatov), tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda:

tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholining, xususan xotin-qizlar, yoshlar va kam ta'minlangan fuqarolarning bandligini ta'minlash orqali ularning daromadlarini va turmush darajasini oshirish;

yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish;

aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, shu jumladan, ichki yo'llarni va ijtimoiy soha obyektlarini rekonstruksiya qilish va qayta ta'mirlash, aholining toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va ularni qayta ishlash darajasini oshirish ishlarini jadal rivojlantirish;

tumanda obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko'rsin.

3. Tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, N.Allanazarov, Ch.Shoymurotov, B.Djumaev, Q.Almatov), tumandagi tijorat banklari bilan birgalikda tumanning ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda:

sanoatda chuqur qayta ishlashni ta'minlash maqsadida mahalliy xom-ashyo bazasini, shu jumladan, qurilish materiallari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan,

paxta, ipak, sut, go'sht, baliq, meva-sabzavotlar, dorivor o'simliklar va shu kabi muhim ishlarni amalga oshirish orqali 2022-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmini, sanoat mahsulotlari hajmini, xizmatlar hajmini oshirish choralari ko'rish;

tumandagi sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyaga ega vertikal va gorizontal integratsiyalashgan ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;

foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va quvvatlari, shu jumladan, faoliyati to'xtagan tashkilotlar negizida mavjud imkoniyatlarni maqbullashtirish hisobiga hamda ishlab chiqarish infratuzilmasiga ega kichik sanoat zonalarini hududida qo'shilgan qiymatlar zanjirini chuqurlashtirishga qaratilgan yangi loyihalarni amalga oshirish;

tuman iqtisodiyotining bitta yoki ikkita tarmoq mahsuloti narx konyunkturasiga bog'liqligini kamaytirishga, hudud sanoati va urbanizatsiya jarayonining muvozanatli rivojlanishiga qaratilgan ishlab chiqarishning tarmoq va hududiy diversifikatsiyasini ta'minlash;

tumanning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va importga bog'liqligini kamaytirishga qaratilgan keng turdagi tayyor raqobatbardosh mashinasozlik, elektrotexnika mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ustuvor qo'llab-quvvatlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish;

tijorat banklari investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan tashabbuskorlarga loyihalarini o'z vaqtida moliyalashtirishga, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni va kreditlarni jalb qilishga zarur amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

4. Tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, N.Allanazarov, Ch.Shoymurotov, B.Djumaev, Q.Almatov), O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi Qumqo'rg'on tumani bo'limi (X.Yuldoshev) bilan birgalikda:

transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud yoki o'tkazish oson bo'lgan faoliyat yuritmayotgan korxonalar balansidagi bino inshootlar va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer maydonlarini xatlovdan o'tkazgan holda aniqlangan bo'sh bino va inshootlar hamda yer maydonlarini elektron auksion orqali tadbirkorlik subyektlariga sotishni;

5. Tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, N.Allanazarov, Ch.Shoymurotov, B.Djumaev, Q.Almatov) tuman Bandlik bo'limi (U.Safarov) bilan birgalikda:

mehnat bozorida haqiqiy holatni chuqur tahlil qilish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarni shakllantirish, ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish va aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatamlari uchun ish joylari zaxirasini (kvota) belgilash yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ishchilar malakasini muntazam oshirib borish;

noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlik holatlarini kamaytirish;

tashkil etilgan ish o'rinlarining hisobini yuritish va haqqoniyligini ta'minlash masalalarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlari bo'yicha zarur choralarni amalga oshirish choralari ko'rsin.

6. Sektor rahbarlari (R.Gapparov, Sh.Akramov, N.Narzullaev, Z.Tursunov), tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, N.Allanazarov, Ch.Shoymurotov, B.Djumaev, Q.Almatov) bilan birgalikda:

birinchidan, uy-joy kommunal va yo'l xo'jaligi, energiya, suv va issiqlik ta'minoti, transport qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash hamda hal etish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlarni;

ikkinchidan, ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, iste'mol bozorida narxlarning barqarorligi, ijtimoiy soha obyektlari, eng avvalo, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni;

uchinchidan, hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish, shu jumladan, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, qurilishi tugallanmagan obyektlardan, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish va yer maydonlaridan oqilona foydalanish, mahalliy byudjetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, xizmat ko'rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordam ko'rsatish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni;

to'rtinchidan, dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli

foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo'jaliklariga ko'maklashish;

beshinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlikda huquqbuzarliklarni, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida profilaktika qilish hamda ularni barvaqt oldini olish;

aholini iqtisodiyotning turli sohalarida bandligini ta'minlash, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar bandligiga alohida e'tibor qaratish, mintaqada ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

7. Tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari (M.Qultaev, J.Shopo'latov, Q.Almatov, Ch.Shoymuratov), birgalikda:

mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror yuqori sur'atlarda o'stirish - mavjud tabiiy resurslarni kompleks va samarali o'zlashtirish, iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, shuningdek xorijiy investitsiyalar hajmlarini ko'paytirish hisobiga yalpi mintaqaviy mahsulotning hajmini oshirish;

zamonaviy qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta jihozlashni davom ettirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni, birinchi navbatda, ishchi kuchi ko'p bo'lgan va sanoat rivojlanishida o'zlashtirish hisobiga sanoatning yalpi mintaqaviy mahsulot tarkibidagi ulushini ko'paytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa qishloq joylarda jadal rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik biznesning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushini ko'paytirish va shu asosda aholi bandligi muammolarini hal etish hamda aholining real daromadlarini oshirishni ta'minlash;

xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida, ayniqsa qishloq joylarda, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, uning yalpi mintaqaviy mahsulot tarkibidagi ulushini yanada o'sishini ta'minlash yuzasidan aniq-hisob kitoblarga asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

8. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tegishli tashkilot rahbarlari amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan hisobot berib borsinlar.
9. Tuman hokimligi axborot xizmati N.Jumayeva, "Qumqo'rg'on sadosi" tuman gazetasi tahririyati (R.Mengziyayeva)ga tuman hokimi R.B.Gapparovning "Xalqqa murojaati" ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin.
10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining

doimiy komissiyalari (S.Turaqulov, M.Namozov, A.Samadov, Q.Tursunova, A.Abduraximov, Sh.Abdusamatov, R.Mengziyayeva) zimmalariga yuklansin.

